

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI - KELAJAK BUNYODKORLARI

*Usanova Muxlisa**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti**Antropologiya va etnologiya yo'nalishi**3-kurs hind-ingliz guruhi talabasi**+998933047175**muxlisausanova03@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada Renessans tushunchasi, Musulmon Renessansi yaratilgani, ikki buyuk renessans ilm-ma'rifat olamida katta po'rtana bo'lgani, Yevropa Renessansiga ta'sir qilishi haqida so'z boradi. Yoshlar siyosatiga davlatimizning bergan e'tibori, Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi o'rnining ahamiyatini mohiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: renessans, "Musulmon Renessansi", "Sharq renessansi", "Bayt ul-hikma", "Ma'mun akademiyasi", Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, yubileylar, yoshlar daftari, xotin qizlar daftari, "Yosh kitobxon" tanlovi

YOUTH OF NEW UZBEKISTAN - FUTURE CREATORS

*Usanova Mukhlisa**Tashkent State University of Oriental Studies**Faculty of Eastern Civilization and Philosophy**Department of Anthropology and Ethnology**3rd year student of the Indian-English group**+998933047175**muxlisausanova03@gmail.com*

Abstract: The article discusses the concept of Renaissance, the creation of the Muslim Renaissance, the two great renaissances that were a great gateway to the world of knowledge, and their influence on the European Renaissance. The attention of our state to youth policy, the importance of the role of young people who are the

creators of the Third Renaissance in the life of the society and the state was tried to be revealed.

Key words: *renaissance, “Muslim Renaissance”, “Eastern Renaissance”, “Bayt ul-Hikma”, “Ma'mun Academy”, New Uzbekistan, Third Renaissance, anniversaries, youth notebook, women's notebook, “Young Reader” competition*

Kirish. “Rennesans” tushunchasining paydo bo‘lishi bevosita fransuzcha *renaissance* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “uyg‘onish”, “tiklanish” degan ma’nolarni bildiradi. Ushbu atamaga duch kelganimizda beixtiyor XIV-XVI asrlarda yuz bergan Yevropa Renessansini ko‘z oldimizga keltiramiz. Tarixchi, faylasuflarning ta’kidlashlaricha rennessans davri o‘zidan avvalgi davrlardan ta’limning jonlanganligi, savdo aloqalarining yuksalishi, san’at, musiqa, adabiyot va fanning rivojlanganligi bilan ajratadi. Shuningdek, xalq orasida ham yangiliklar iliq kutib olinib boshlaydi, rennessansgacha esa jamiyat, davlat, xalq, cherkov o‘rta asrlardagi ko‘p narsalarni rad etadi. Bu vaqtgacha aholi katta qo‘rg‘onlarda yashagan. Shaharlar juda kam bo‘lib, ijtimoiy hayotda diniy va harbiy yetakchilar mavqeyi baland bo‘lgan. Savdo, sanoat, tijoratdagi o‘rishlar shaharlarning rivojlanishiga olib keladi. Jamiyat hayotida ham yangi qatlamlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, jumladan, yirik savdogarlar katta e’tibor qozonishadi. Rennessans va unchagacha yuz bergan ba’zi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar davlat va jamiyat tuzilishi, qurilishi tizimini, diniy qadriyatlar va urf-odatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Jumladan, yirik davlatlar tuzilishi va xristianlikda yangi protestantlik oqimining paydo bo‘lishi.

Sharqda esa bu jarayonlar o‘zgacha kechadi. Sharq xalqlari ma’naviy-marifiy, madaniy hayotida uyg‘onish olib kelgan davr sifatida baholanadi. Sharq Renessansi davriy jihatdan Yevropa Renessansidan avval sodir bo‘lgan va uzoq davrni qamrab olganligi sababli, xronologik jihatdan ikki davrni o‘z ichiga oladi:

Birinchisi Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo mintaqalarida islom madaniyati negizida birlashuvidan to mo‘g‘illar bosqiniga qadar bo‘lgan vaqtda IX-XI asrlar tarixi bilan bevositida bog‘liqdir. Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, Farobiy, Farg‘oniy, Beruniy, ibn Sino, Zamaxshariy, Moturudiy kabi nomlar bilan

mashhurdir. Birinchi renessans vakillarini aksariyat qismi fanning bir necha sohalari bo'yicha mutaxassis bo'lib, ensiklopedik bilimlarga ega bo'lishgan. Ular dastlab, qadimgi yunon-rim, hind, xitoy madaniyatlari bilan tanishib, o'z bilimlarini boyitadilar. Fan va madaniyatdagi siljishlar insonlar, jumladan olimlarning diniy-mafkuraviy g'oyalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, insonlarda aqidaparastlikni rad etish, hurfikrlilik, insonparvarlik, ma'naviy go'zallik, kamolotni Allohning yuksak in'omi sifatida talqin etish holatlari yuz beradi. Birinchi renessans Bag'dod "Bayt ul-hikma"si va Xorazm "Ma'mun akademiyasi" bilan ham jahonga mashhur.

Ikkinchi renessans davri esa Amir temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrni mutafakkir, olim, san'atkorlari Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Jurjoniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, G'iyosiddin al-Koshoniy, Mirxond, Xondamir, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Kamoliddin Behzod kabilardir. Bundan tashqari jamiyat hayotida yassaviylik, naqshbandlik kabi ta'limotlar yetakchilik qiladi. Me'morchilikka alohida e'tibor berilib, turli madrasa, maqbara, masjid, saroylar, xonaqoh, bog'larning qurilishini kuzatishimiz mumkin. Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda, Bibixonim madrasasi, Oqsaroy, Registon kabi inshoatlar temuriylar me'morchiligining yorqin namunalari andir. Samarqandagi Ulug'bek rasadxonasi esa o'z davrida ilmi toliblar uchun samarali xizmat qiladi.

Asosiy qism. Mamlakatimiz tamadduni davomida ikki renessans davrini boshidan o'tkazganligi tarixdan ma'lum. Rivojlanish, taraqqiyot va o'z davrining yirik madaniyati bunyodkorlari yod etish va ular xotirasini abadiylashtirish masalasi mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrdan boshlangan. Yillarni nomlashda ham bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

- 1991-yil Alisher Navoiy yili va 550 yilligi
- 1992-yil Sharof Rashidovning 75 yilligi
- 1993-yil Ahmad Yassaviy yili, Zahiriddin Muhammad Boburning 510 yilligi
- 1994-yil Mirzo Ulug'bek yili va 600 yilligi

- 1995-yil Ibn Sino yili, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Zamaxshariy 920 yilligi
- 1996-yil Amir Temur yili va 660 yilligi
- 1998-yil Ahmad Fargʻoniy 1200 yilligi, Imom Buxoriy 1225 yilligi, Berdaq 170 yilligi
- 1999-yil Jaloliddin Manguberdi 800 yilligi, Ajiniyoz 175 yilligi, Ogohiy 190 yilligi
- 2000-yilligi Burhoniddin al-Margʻinoniy 910 yilligi, Moturidiy 1130 yilligi, Kamaliddin Behzod 545 yilligi
- 2003-yil Abduxoliq Gʻijduvoni 900 yilligi
- 2017-yil Sharof Rashidov 100 yilligi
- 2018-yil Islom Karimov 80 yilligi keng miqyosda nisholanildi.

Ularning ilmiy va ijodiy merosini oʻrganish hozirda ham davom etmoqda. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ham Ogohiyshunoslik maktabi shakillanib ulgurgan qolaversa, oʻqituvchilar va talabalar salmoqli ishlar amalga oshirmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tantanali tabrik nutqida mamlakatimiz taraqqiyoti uchun Uchinchi Renessansning ahamiyatini bayon qildi.

Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida soʻz ketganda **“Yangi Oʻzbekiston”** iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qoʻyganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning eʼtirofidir. **Xalqimizning ulugʻvor qudrati joʻsh urgan hozirgi zamonda Oʻzbekistonda yangi bir uygʻonish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat boʻladi. Chunki bugungi Oʻzbekiston – kechagi Oʻzbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.**

Uchinchi Renessans xalqimiz yanada jipslashuvi uchun umummilliy gʻoya vazifasini oʻtashi lozim, bunda yoshlarning oʻrni haqida bir qator muhim qarorlarni imzoladilar. Qilinadigan ishlar, istiqbolli rejalarni amalga oshirish uchun taʼlim-

tarbiya, kadrlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib, muhim shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilishi yo'l xaritalari belgilanib olindi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillarida olg'a surgan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz" g'oyasining uzviy davomi sifatida olishimiz mumkin. Yaqinda chiqqan statistikalarga qaraganda O'zbekiston aholisi 37 milliondan oshdi va uning 60 foizidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Ushbu statistikaning o'zi ham mamlakatimiz siyosatida birinchi o'rindagi masalalardan biri yoshlar ekanligini ko'rsatib beradi. Bir qator yillarda yoshlarga oid qonun va qarorlar qabul qilingan.

Davlat yoshlarning shahxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellectual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakillanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'liqni saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Rennessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq.

Ikki renessans tajribasidan kelib chiqib, yoshlar tajribasi, ma'naviyati, iymon-e'tiqodi masalasiga e'tibor qaratish hozirda ham dolzarbdir. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir" degan naqlda ham yoshlik umr bahori, kuch-g'ayrat va bilim olish olish uchun ayni palla ekanligini tarix guvohdir. Imom al-Buxoriy 9 yoshida Qur'oni Karimni yod oladi, Bobur mirzo 12 yoshida taxtga o'tiradi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida ilm va odob-axloq uyg'unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o'zaro do'stligi va hamkorligi, obod turmush to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surgan. Mutaфakkir "Bola badanining bo'g'inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog'i eshitish va gapni ma'qullash uchun tayyor bo'lib, vujudi ilm va odob o'rganishga hozir bo'lganda unga ilm va odob o'rgatish kerak", deb yozadi.

Yoshlarimizning Uchinchi Renessans yaratishdagi ahamiyati haqida Prezidentimiz o'z nutqlarida muhim da'vat etadilar: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak". Bu yo'lda Prezidentimiz qarorlariga binoan yoshlar daftari, xotin-qizlar daftari, temir daftarlarning joriy etilishi, "Besh tashabbus" olimpiyadalari, "Yosh kitobxon", "Zukko kitobxon" tanlovlarining tashkil etilishi ham O'zbekiston yoshlariga o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishiga imkoniyat beradi. Birgina yoshlar daftariga kelib tushgan arizalar soni 50865 tani tashkil qilsa, undan 69,1 % qismi qabul qilingan, 6,6% ko'rib chiqilmoqda. Mana shu statistikalar ham davlatimiz yaratayotgan imkoniyatlar va kutayotgan natijalardan darak bermoqda. Uchinchi Renessans bunyodkorlari bunday imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanishi zarurdir.

Xulosa. Hozirgi tez rivojlanayotgan davrda tarixi va qadim madaniyati buyuk bo'lgan mamlakatimizning kelajagi har qachongidan ham muhim masala bo'lib qolmoqda. Yaqin o'n yilda O'zbekiston yoshlari Jahon hamjamiyatidagi yoshlar masalalariga oid bo'lgan bir qator forum va yig'ilishlarda ishtirok etib kelmoqdalar. Bu ham o'ziga bo'lgan ishonchni, yorqin kelajakni qurishga bo'lgan xohishdandir. Yuqorida ta'kidlanganidek kitobxon yoshlarga, xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan sportchilar, tadbirkor, harakatchan va mehnatsevar yoshlarga Prezident sovg'asi-avtomobillar taqdim etilishi ham yanada ko'proq harakat qilish uchun bo'lgan bir mukofotlardan deb bilsak bo'ladi. O'zbekiston bir davlat, O'zbekiston yoshlari esa kuchdir. Yangi O'zbekiston yoshlari esa Uchinchi Renessans bunyodlarlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I.A. (1997). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.

2. Karimov, I.A. (1996). Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2020). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.
4. Mirziyoyev, Sh.M. (2020). O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi nutqi. Prezident.uz sayti
5. Xudoyberdiyev, A. (2004). Renessans davri va O‘zbek madaniyati. Toshkent: Sharq.
6. Abdullayeva, S., Karimova, D. (2015). Sharq va G‘arb Renessanslari: qiyosiy tahlil. Toshkent: Fan.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi. (2020). Uchinchi Renessans sari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). Aholi soni va yoshlar statistikasi. www.stat.uz
9. “Ma’naviy meros va milliy g‘urur”. (2021). Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.
10. Jo‘rayev, H. (2012). Temuriylar davri madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
11. Alimov, R. (2001). Buyuk Renessans namoyandalari. Toshkent: O‘qituvchi.